XALQ DEPUTATLARI OLMAZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr III-20-140-14-197-K/25 Olmazor tumani

Olmazor tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Qonunining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 6-, 24-moddalari va Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent shahari Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar hokimligining 2025-yil 26-dekabrdagi 02-3657-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Olmazor tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **191 736 369,0ming.so‘m** va xarajatlari esa **191 736 369,0 ming.so‘m ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Olmazor tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan

budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 816 668,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasi hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq:

a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjeti va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

foyda solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

davlat bojlari;

yig‘imlar;

jarimalar;

4. Quyidagilar:

2026-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2026-yil tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘arning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy byudjeti bilan tumanlar byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Toshkent shahar G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 765 545,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi Budjet Kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Maxmudjonov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Xatamov), tuman Soliq inspektsiyasi (Sh.Tadjibayev) bilan birgalikda:

2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Olmazor tumani Soliq inspektsiyasi (Sh.Tadjibayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq

nazoratini o‘rnatish hamda qonun hujjatlariga amal qilgan holda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashi bilan birgalikda yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Majburiy ijro byurosi Olmazor tumani bo‘limi (F.Xamdamov), Olmazor tumani Soliq inspeksiyasi (Sh.Tadjibaev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

9. Davlat kadastrlar palatasi Olmazor tumani filiali (A.Qosimov), tuman mahallalaridagi hokim yordamchilari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi hamda bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmalari tomonidan tumanga biriktirilgan vakillari bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra Olmazor tumanida mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash choralari ko‘rilsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Maxmudjonov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Xatamov):

har yili yil yakuni bilan belgilangan muddatlarda byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashlariga hisobot berib borsin.

Bunda, o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishini;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishini;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishini;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon,

kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasin.

11. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (V.Talibdjanov)ga:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.olmazor.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

12. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

13. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi T.Nazarovva Olmazor tumani hokimining birinchi o‘rinbosari J.Maxmudjonov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **UMARXONOV AZIZXON SHARIPXONOVICH**

Xalq deputatlari Olmazor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
III-20-140-14-197-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Olmazor tumani mahalliy budjeti daromadlari

PROGNOZI

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
JAMI		**191 736 369,0**
1.	Foyda solig‘i	1 416 492,0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	4 038 950,0
3.	Daromad solig‘i	3 191 447,0
4.	Mol-mulk ijarasidan tushum (deklarasiya)	2 574 100,0
5.	Qo'shilgan qiymat solig‘i	2 431 820,0
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	32 460 410,0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	73 168 000,0
8.	Yuridik shaxslarning er solig‘i	20 643 900,0
9.	Jismoniy shaxslarning er solig‘i	33 802 000,0
10.	Suv solig‘i	6 047 000,0
11.	Davlat boji	3 016 300,0
12.	Jarimalar	3 977 500,0

13.	Mahalliy soliqlar va yig‘imla	451 450,0
14.	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	4 517 000,0

Xalq deputatlari Olmazor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
III-20-140-14-197-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil Olmazor tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘arning

CHEKLANGAN MIQDORLARI

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Mablag‘ miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**191 736 369,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	83 211 774,0
	shundan:	0
	“Mening maktabim”	1 915 800,0
3	Madaniyat bo‘limi	5 836 797,0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 925 761,0
5	Sport bo‘limi	11 150 194,0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 721 068,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	0
8	Irrigasiya bo‘limi	0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 466 231,0
10	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	450 774,0
11	Hokimiyat	47 895 517,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	20 145 000,0
	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	3 926 000,0

	Zahira jamg‘armasi	1 765 545,0
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	3 009 921,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	75 183,0
	Axborot-kutubxona markazlari	2 934 738,0
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	31 068 332,0
14	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
III-20-140-14-197-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Olmazor tumanida 2026-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar

ME’YORLARI

T/r	Tuman	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan		Foyda solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Olmazor tumani	0%	5%	0%	5%	0%	5%	0%	5%	0%	31%	0%	30%	100%	100%	100%	100%

Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig‘imlar
Tuman budjetiga	Tuman budjetiga	Tuman budjetiga	Tuman budjetiga
5%	5%	5%	5%